

sáwlelendiriwshi áhmiyetli elementlerden biri bolıp esaplanadı. Keleshekte bul temanı jáne de terehirek úyreniw, fitonimlerdiń kelip shıǵıw tariyxın talqılaw hám olardıń basqa túrkiy tillerdegi uqsaslıqların anıqlaw lingvistika tarawındaǵı ilimiy izleniwler ushın paydalı bolıwı múmkin.

Juwmaq. Qaraqalpaq hám ózbek tillerindegi fitonimlerdiń leksikalıq-semantikalıq analizi sonı kórsetti, bul tiller bir-birine jaqın bolıwına qaramastan, fitonimlerdiń qalıplesiwi, qollanıwı hám mánilik qatlamları jaǵınan ózine tán ózgesheliklerge iye. Olardıń kópshiligi ulıwma

túrkiy negizlerge iye bolsa da, ayırım fitonimlerdiń sózlik quramındaǵı ayırmashılıqlar tariyxıy, geografıyalıq hám lingvistikalıq faktorlar menen baylanıslı. Fitonimler tek ósimlik atamaları sıpatında emes, al xalıqtıń tábiyat penen qatnasın sáwlelendiriwshi, mádeniy miyras hám awızeki dóretiwshilik úlgeri menen baylanıslı áhmiyetli til birlikleri sıpatında da kórinedi. Izertlew sonı tastıyıqladı, fitonimler xalıq medicinası, isenimler, naqıl-maqallar hám ápsanalarda keńnen qollanılp, insan hám tábiyat arasındaǵı baylanıstıń lingvistikalıq tımsalı sıpatında xızmet etedi.

Ádebiyatlar

1. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. –Ташкент: 2010. - С. 25.

2. Ibragimova R. S. Fransuz va o'zbek tillarida ayol konseptining lingvokognitiv tadqiqi. NDA. -T.: 2012.

3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. 2012. № 5. 3-16-b.

4. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lugati. -T.: "Ma'naviyat", 2013.

5. Qaraqalpaq tilinin tusundirme sózligi. T.7. -Nókis: "Qaraqalpaqstan". 2023.

6. Qaraqalpaq tilinin tusundirme sózligi. T.5. -Nókis: "Qaraqalpaqstan". 2023.

7. Qaraqalpaq tilinin tusundirme sózligi. T. 4. -Nókis: "Qaraqalpaqstan". 2023.

8. O'zbek tilining izohli lugati. 2-jild. O'zME. -T. 2006.

9. O'zbek tilining izohli lugati. 4-jild. O'zME. -T. 2006.

REZYUME. Ushbu maqolada qaraqalpoq va o'zbek tillaridagi fitonimlarning leksik va semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Fitonimlarning kelib chiqishi, semantik guruhlari va ikki til o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar qiyosiy taxlil asosida o'rganildi. Shuningdek, fitonimlarning madaniy, tarixiy va etimologik xususiyatlari ham o'rganilgan. Tadqiqotlar natijalari fitonimlarning takomillashish prinsiplarini aniqlashga va turkiy tillar leksikologiyasida muhim xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются лексико-семантические особенности фитонимов в каракалпакском и узбекском языках. Происхождение фитонимов, их семантические группы и общие черты и различия между двумя языками были изучены на основе сравнительного анализа. Также рассматриваются культурные, исторические и этимологические аспекты фитонимов. Результаты исследования служат определению принципов формирования фитонимов и выведению важных выводов в лексикологии тюркских языков.

SUMMARY. This article analyzes the lexical and semantic features of phytonyms in the Karakalpak and Uzbek languages. The origin of phytonyms, their semantic groups, and the commonalities and differences between the two languages were studied on the basis of a comparative analysis. Cultural, historical, and etymological aspects of phytonyms are also considered. The research results serve to determine the principles of formation of phytonyms and to draw important conclusions in the lexicology of Turkic languages.

“ANGER” METAFORASINING MATNDA FAOLLASHUVI

Sh.M.Kalimbetov – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so'zlar: konseptual metafora, metaforik ibora, emotsiya, tushuncha, g'azab, kognitiv, lingvometodologiya, paradigmatic, tavsifiy-analitik.

Ключевые слова: концептуальная метафора, метафорическая фраза, эмоция, понятие, гнев, когнитивный, лингвометодология, парадигматический, описательно-аналитический.

Key words: conceptual metaphor, metaphorical phrase, emotion, understanding, anger, cognitive, linguometodology, paradigmatic, descriptive-analytical.

Kirish. Konseptual metafora nazariyasining asoschilari amerikalik olimlar J.Lakoff va M.Jonsonlar [5] hisoblanadi. Ushbu olimlar tomonidan yaratilgan metaforani tafakkur mahsuli sifatida talqin qilish nazariyasi hozirgi kunda tilshunoslar va adabiyotshunoslar tomonidan keng miqyosda e'tirof etilgan nazariyadir. Metaforaning umumiy yoki integrativ nazariyasi uzluksiz ravishda rivojlantirilib borilmoqda. Aytish joizki, mazkur nazariya tilshunoslikdan tashqari, psixologiya, adabiyotshunoslik va falsafa sohalarida ham o'z tatbiqini topgan. Ushbu nazariya doirasida “konseptual metafora” va “metaforik ibora” tushunchalarini farqlash an'anasi mavjud. Bunda konseptual metafora, “manba hududdan mo'ljaldagi hududga ko'chish” (a mapping from a source domain to a target domain) ta'rifini olsa, metaforik ibora esa, aynan shu metaforani lisoniy voqelantiruvchi vositadir. Masalan,

quyidagi mavzuviy guruhlarga kiruvchi iboralar Argument is war konseptual metaforasini ifodalaydi va bu yerda manba hudud war bo'lsa, argument tushunchvsi mo'ljaldagi hududdir [6:314].

Argument is war

- 1) *Your claims are indefensible;*
- 2) *He attacked every weak point in my argument;*
- 3) *His criticisms were right on target;*
- 4) *I demolished his argument;*
- 5) *I've never won an argument with him;*
- 6) *You disagree? Okay, shoot!*
- 7) *If you use that strategy, he'll wipe you out;*
- 8) *He shot down all my arguments.*

Ko'rinadiki, metaforik ko'chim doimo real muqobillarga ega bo'ladi. Masalan, *argument is war* konseptual metaforasida bahs-munozara (argument) jang

jarayoniga o'xshatilyapti; boshqa birovning nuqtayi nazarini inkor etish esa – hujumga, boshqaning fikrini yo'qqa chiqarish – urushdagi g'alabaga tenglashtirilmogda. Bu xildagi muqobillar nafaqat manba va mo'ljal hududlari o'rtasida, balki ushbu hududlar o'zlarining unsurlari o'rtasidagi munosabatlarda ham yuzaga keladi. Lekin ushbu holatda ham mo'ljal hududga qarashli unsurlar o'rtasidagi munosabatlarni manbadagi unsurlar bilan bog'liq idrok etamiz. Jumladan, biz bahsda g'olib chiqishimiz uchun o'zganing fikrini inkor eta olishimiz kerak bo'ladi, jangda g'olib kelish uchun esa, muvaffaqiyatli hujum uyushtirish kerak.

Asosiy bo'lim. Konseptual metafora nazariyasi emotsiya bilan bog'liq tushunchalar tadqiqiga keng miqyosda tatbiq qilinib kelinmogda. Zotan, emotsiya tushunchalari tabiatan mavhum va ularni "dastavval konseptual metaforalar vositasida izohlash va anglash mumkin". Konseptual metaforalarning ajratilishi emotsiya tushunchalari ma'nosini tavsiflashga imkon beradi. Haqiqatan ham, konseptual metaforalarning mavhum tushunchalar konseptuallashtirishdagi muhim va hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlash lozim. Zero, ularning ishtirokisiz emotsiya tushunchalarining haqiqiy mundarijasini tasvirlash qiyindir.

Implikatura nuqtayi nazaridan yondashuvda, boshqalardan farqli ravishda, emotsiya tushunchalarining yagona bir madaniyat doirasidagi munosabati muammosi u qadar o'rganilmagan. Bu yerda asosiy e'tibor emotsiyalarning madaniyatlararo farqli jihatlari beriladi. Shu bois, ushbu yondashuv vakillari tomonidan emotsiya tushunchalarining ma'nosi lisoniy madaniyatlarda ko'p jihatdan farq qilishi alohida ta'kidlanadi. Jumladan, R.Shveder emotsiyalarning ma'nosi madaniyatlar qamrovida ekanligini qayd etayotib, quyidagi fikrni bildirgan: "Ilongosh qabilasi vakillari g'azabni butunlay o'zgacha tushunadilar, chunki ular g'azablanish xavfli hissiyot bo'lib, hatto jamoani tarqatib yuborishi mumkin deb hisoblaydilar; eskimoslar esa g'azablanish faqat bolalarga xos hissiyotlar qatoriga kirishini qayd etadilar; amerikalik ishchilarning nazdida g'azab qo'rquvni yengish va erkinlikka erishish vositasidir.

Qoraqalpoq tilida ushbu emotsiya holatining o'ziga xosligini g'azab tushunchasiga tegishli maqollarda ko'rish mumkin.

Ashw araz aqil dos, aqilina aqil qos;

Ashw kelse aqil ketedi;

Ashwli adamni so'zi ashshi;

Ashw menen qartaysan;

Kulki menen jasarsan;

Ashw aldinan keledi,

Aqil sohinan keledi;

Ashw – aqil bolmaydi,

Aqil aziq boladi.

Ashwli adamni o'zi az bolsa da,

Iza-kegi artinda boladi [8:88-100].

Emotsiya tushunchalari bilan bog'liq konseptual metaforalar ularning lisoniy voqeanishini ta'minlovchi iboralar vositasida ajratiladi. Har qanday metaforik ibora konseptual faoliyat natijasidir va ularning konseptual metaforalar bilan aloqasi tizimli xususiyatga ega. Ushbu metaforalarning har tomonlama tahlili tushunchalar haqida to'liq tasavvur hosil qilishga zamin yaratadi. Masalan, Z.Kovech «g'azab» (*anger*) tushunchasi quyidagi metaforalarda ifoda topishini ko'rsatib o'tadi:

A list of basic-level metaphors

anger is a hot fluid in container	She is <u>boiling</u> with anger.
anger is a fire	Oh, boy, was I <u>burned up</u> .
anger is insanity	The man was <u>insane</u> with anger.
anger is an opponent in a struggle	I <u>was struggling</u> with anger.
anger is a captive animal	He <u>unleashed</u> his anger.
anger is a burden	He <u>carried</u> his anger around him.
anger is a natural force	It was a <u>stormy</u> meeting.
anger is a superior	His actions were completely <u>governed by</u> anger

Yuqorida ko'rsatilgan Z.Kovechning "g'azab" (*anger*) tushunchasi bo'yicha keltirgan metaforalar va E.Allanazarov tomonidan "Qaraqalpaq tilinde metaforalarning stillik qollanilari" (O'zbekstan hám Qaraqalpaqstan xalq shayri T.Jumamuratovni poeziyasi tiykarida) nomli nomzodlik ishida tadqiq qilingan qoraqalpoq tilidagi ayrim metaforalar o'rtasida muayyan o'xshashliklarni ko'rishimiz mumkin [1:148].

"Anger is a hot fluid in container" metaforik tuzilmasining to'g'ridan to'g'ri tarjimasi (g'azab bu idishdagi qaynagan suyuqlik) "Ichi g'azabga to'la" mos keladi. Bunday vaziyatda qoraqalpoq tilida odatda "toshqin" suvga oid suv toshqini, daryo toshishi shaklida keng qo'llaniladi. Suvga oid obyektlar, baxt toshqinlarsa degan mo'l bo'lishi, ko'payishi ma'nolariga yaqin belgi, baxti chopsa, mo'l bo'lsa, ko'paysa ma'nolariga tutashadigan ikkinchi bir narsaga, hodisaga xos belgining toshqinlarsa atamasi bilan almashib metaforalashgan ma'noda qo'llanilmogda.

"Anger is a fire" to'g'ridan to'g'ri tarjimasi (*g'azep bul jahn*) "Ol *g'azep*ten kiydi"; "Anger is insanity" to'g'ridan to'g'ri tarjimasi (*g'azep aqilsizliq*) "*G'azep/ashw kelse aqil keter*"; "Anger is an opponent in a struggle" to'g'ridan to'g'ri tarjimasi (*g'azep bul gurestegi qarsilas*) "*G'azep*ti jehiw"; "Anger is a captive animal" to'g'ridan to'g'ri tarjimasi (*g'azep qolga tusken haywan siyaqli*) "Ol *oz g'azebin shashti*"; "Anger is a burden" to'g'ridan to'g'ri tarjimasi (*g'azep bul awir juk siyaqli*) "*Kewli g'azepke toli*"; "Anger is a natural force" to'g'ridan to'g'ri tarjimasi (*g'azep bul tabiyiy kush*) "*Qabilbek*ti qabaqinan qar jawdi da turdi"; "Anger is a superior" to'g'ridan to'g'ri tarjimasi (*g'azep hareketti basqarwi*) "Ol *g'azebin julawlay almad*".

Bundan tashqari, Z.Kovech yana to'rtta metaforani shu ro'yxatga qo'shib qo'yish tarafdori:

Metaphorical source characterize ANGER

1. The angry behavior is aggressive animal	Don't <u>snarl</u> at me.
2. The cause of anger is trespassing	Here I <u>draw the line</u> .
3. The cause of anger is physical annoyance	He's <u>a pain</u> in the neck.
4. The angry person is a functioning machine	That really <u>got him going</u> .

Z.Kovech tomonidan keyin qo'shilgan 4 ta metaforani qoraqalpoq tilida ham ko'rishimiz mumkin:

1. *The angry behavior is aggressive animal:* G'azepeniw – agressiv haywan. Don't snarl at me. *Snarl* feyli *hayuannin* irlidi *sestin shigarw*, *adamga* qarata

ashıwlanıp/ǵázeplenip ırıldaw ma'nosini anglatadı.

2. *The cause of anger is trespassing: Ǵázeptiń kelip shıǵıw sebebi, birewdiń mǵlkinе zıyan keltiriw yoki birewdiń jerine ruxsatsız kiriw.* Here I draw the line. *Bul sıziqtan qádem baspa.*

3. *He's a pain in the neck. Ol basqa pitken bále boldı.*

4. *The angry person is a functioning machine: Ashıwlanǵan/ǵázeplengen adam iske túsken mashina sıyaqlı. Bul nársе haqıyqatında da onı qozdırdı.*

Ushbu metaforalarning barchasi emotsiya konseptini soddalashtirilgan usulda sharhlash imkonini beradi.

Qayd etish kerakki, emotsiya tushunchalarining metaforalashuvi ularning prototip qoliplariga asoslanadi. Masalan, *Anger is a hot fluid in a container* metaforasi quyidagi izohlarga ega bo'ladi:

1) *The container with fluid is the person who is angry;* 2) *The fluid in the container is anger;* 3) *The pressure of the fluid on the container is the force of anger on the angry person;* 4) *The cause of the pressure is the cause of the anger force;* 5) *Trying to keep the fluid inside the container is trying to control the anger;* 6) *The fluid going out of the container is the expression of the anger;* 7) *The physical dysfunctionality of the container is the social dysfunctionality of the person.*

Ushbu izohlar g'azablanayotgan shaxs, g'azabning kuchi, g'azabni nazorat qilish, g'azabni ma'lum qilish va uning natijasi kabilar bilan aloqadorligi ko'rinib turibdi. Z.Kovechning fikricha, mazkur metafora g'azab emotsiyasining kognitiv qolipini hosil qiladi.

Adabiyotlar

1. Allanazarov E. Qaraqalpaq tilinde metaforalardıń stillik qollanılıwı (Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan xalıq shayırları T.Jumamuratovtıń poeziyası tiykarında): Filol. fan. nom. ... dis. – Nókis: 2002. 148-b.
2. Cameron L., Low G. Researching and applying metaphor. – Cambridge: CUP, 1999. –P. 132.
3. Davitz J. The language of emotions. – New York: «Academic Press», 1969. –P. 116.
4. Frijda A. The Emotions. – Cambridge: CUP, 1986. –P. 480.
5. Johnson M. The Body in the Mind: the bodily basis of meaning, imagination and reason. – Chicago: The University of Chicago Press, 1987. –P. 233.
6. Kövecses Z. Metaphor in culture: universality and variation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. –P. 314.
7. Lakoff G., Johnson M. Philosophy in the flesh: embodied mind and its challenge to western thought. – New York: «Basic Books», 1999. –P. 624.
8. Qaraqalpaq folklori. T. 88-100. Naqıl-maqallar. -Nókis: «Qaraqalapaqstan», 2015. 544-b.
9. Qayıpbergenov T. Qaraqalpaq dástanı. Baxıtsızlar. – Nókis: «Bilim», 2019. 400-b.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblangan konseptual metaforasining matnda faollashuvining amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada asosiy e'tibor g'azab emotsiya tushunchalari bilan bog'liq konseptual metaforalar va ularning lisoniy voqealanishini ta'minlovchi iboralarga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются практические и теоретические аспекты активации концептуальной метафоры в тексте, что является одной из актуальных проблем. В статье рассматриваются концептуальные метафоры, связанные с эмоциональными концептами гнева, и выражения, обеспечивающие их языковое возникновение.

SUMMARY. This article analyzes the practical and theoretical aspects of the activation of conceptual metaphor in the text, which is one of the current issues. The article focuses on conceptual metaphors related to the emotional concepts of anger and the expressions that provide their linguistic occurrence.

QARAQALPAQ TILINDE MIYWE-PALÍZ EGINLERINE BAYLANÍSLÍ KÁSIPLIK SÓZLERDÍŇ LINGVOGEOGRAFIYALÍQ SÍPATLAMASÍ

M.K.Kaypnazarova – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent
Ajiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: qaraqalpoq tili, meva-poliz nomlari, kasbiy so'zlar, terminlar.

Ключевые слова: каракалпакский язык, названия фруктов и овощей, профессиональные слова, термины.

Key words: karakalpak language, names of fruits and vegetables, professional words, terms.

Kirisiw. Qaraqalpaq tilinde miywe-palız eginleri júzege kelip, leksikalıq qatlamda óz kórinisin tabadı. Bul kásiplik sózlerdiń qollanılıwın qaraqalpaq naqıl-maqalları